**O`SMIRLARDA VUJUDGA KELADIGAN OG`ISHGAN XULQNING KO`RINISHLARI.**

***Narziyeva Shahnoza Rustamovna***

*Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlarda kuzatiladigan og'ishgan xulq-atvorning asosiy ko'rinishlari, ularning sabablari va oldini olish choralari tahlil qilinadi. O'smirlik davri shaxsning shakllanish bosqichi bo'lib, bu davrda turli ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida xulq-atvorda o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Tadqiqotda oilaviy muhit, do'stlar davrasi va internetning ta'siri atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'smirlik davri, og'ishgan xulq, deviant xulq-atvor, psixologik omillar, profilaktika.

**Kirish:** O'smirlik davri inson hayotidagi muhim bosqich bo'lib, bu davrda jismoniy, ruhiy va ijtimoiy o'zgarishlar yuz beradi. Shu jarayonda ayrim hollarda og'ishgan xulq-atvor shakllanishi kuzatiladi. Bunday xulq-atvor deviant xatti-harakatlar, tajovuzkorlik, yolg'onchilik yoki noqonuniy xatti-harakatlar ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada o'smirlardagi bunday xatti-harakatlarning sabablari, turlari va ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.

Moslashmaganlikning ijtimoiy va individual ko'rinishlarini ajratish mumkin. Moslashmaganlikning ijtimoiy ko'rinishlari quyidagilar hisoblanadi:

- past o'zlashtirish, o'z mehnati bilan mablag' ishlab topishga layoqatsizlik;

- hayotiy muhim sohalarda surunkali yoki yaqqol ifodalangan omadsizlik (oilada, ishda, shaxslararo munosabatlarda);

- qonun bilan nizolar;

-yakkalanib qolish.

Moslashmaganlikning individual ko'rinishlari sifatida quyidagilami ko'rib chiqish mumkin:

- ijtimoiy talablarga munosabati yuzasidan salbiy ichki tartib (ular bilan kelishmaslik, tushunmaslik, noroziiik, qarshi harakat);

- o'zining mas'uliyatdan qochishga intilishida atrofdagilarga ko'tarinki e'tiroz bildirish, egosentrizm;

- surunkali hissiy noqulaylik;

- o'z-o'zini boshqarishning besamarligi;

- janjalkashlik va kommunikativ ko'nikmalaming zaifligi;

- reallikni kognitiv buzib ko'rsatish.

Odam turlicha tuyg'ularni - yengil xavotir va o'ziga ishonchsizlikdan tortib, chidab bo'lmas darajadagi nochorlik, qo'rquv, umidsizlik jazavalarigacha boshidan kechirishi mumkin.

Bunda shaxsning real ijtimoiy maqomi va uning individual ongi o'rtasida bo'linishi yuzaga kelishi mumkin.

So'nggi mezon - individual psixologik mezon har bir shaxs, uning individualligining obsib boruvchi barcha qadriyatlarini aks ettiradi.

Ushbu mezonga muvofiq insonga zamonaviy talablar ijtimoiy me'yorlarni bajarishga uning qobiliyatini cheklamaydi, biroq shaxsning o'z-o'zini anglashi va o'ziga xosligini ham ko'zda tutadi.

Shu bilan bog'liq ravishda bizning zamonda shaxsning asos soluvchi sifatlari deb quyidagilami aytish mumkin: tashqi olam va o'ziga nisbatan uning ichki pozitsiyasi, qaror qabul qilish va tanlash layoqati, shuningdek, shaxsiy axloqiga mas'uliyati. Ijtimoiy borhqda o'z-o'zini aniqlash va shaxsiy potensialining o'z-ovozini ro'yobga chiqarishi unda individual rivojlanishning yetakchi vazifasi deb tan olinadi.

Ma'lumki, maxsus adabiyotlarda "og'ishgan xulq" atamasi ko'pincha deviant axloq (deviatio - lotin tilida og'ishgan) sinonimi bilan almashtiriladi. Kelgusida biz o'zaro bir-birining o'rnini to'ldiruvchi sifatida har ikkala atamani qo'llaymiz - "og'ishgan", ''deviant", bunda birinchi atama aniq va o'rganilgan bo'lgani sababli afzal ko'riladi.

O'rganilayotgan tushunchaning yaqqol ko'rinib turgan murakkabligiga hammadan avval uning fanlararo xarakteri sababdir.

Hozirgi vaqtda bu tushuncha ikki asosiy mazmunda foydalaniladi. Deviant axloq "rasman o'rnatilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me'yorlarga mos kelmaydigan munosabat, inson harakati" ma'nosida psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida yuzaga chiqadi. "Inson faoliyatining ommaviy va mustahkam shakllariga nisbatan ifodalanuvchi va rasman o'rnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud bo'lgan me'yorlar va qarashlarga mos tushuvchi ijtimoiy ko'rinish" ma'nosida sotsiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiyaning predmeti hisoblanadi. Og'ishgan xulqni birinchi aspektdagi afzalligi - individual faollikning ko'rinishi sifatida ko'rib chiqamiz.

**Xulosa:** O'smirlik davrida og'ishgan xulqning shakllanishiga turli omillar, jumladan, oilaviy muhit, ijtimoiy ta'sir va psixologik omillar sabab bo'ladi. Bunday holatlarning oldini olish uchun oilaviy muhitni sog'lomlashtirish, ijtimoiy muhit bilan hamkorlikda ishlash va psixologik yordam ko'rsatish muhimdir. Shuningdek, ta'lim muassasalari va jamiyatning ushbu jarayonda faolligini oshirish zarur.

**Adabiyotlar:**

1. Jo‘Rayeva, D. O. (2024). EDUCATIONAL VIEWS OF PEDAGOGUES TOWARDS THE ENVIRONMENT. *Экономика и социум*, (4-1 (119)), 194-197.
2. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. *Modern Science and Research*, *2*(10), 333-336.
3. Rustamovna, N. S. (2023). UNDERSTANDING EMPATHY: AN ESSENTIAL COMPONENT OF HUMAN CONNECTION. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 378-382.
4. Rustamovna, N. S. (2023). DEVELOPING EMPATHY IN STUDENTS. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, *1*(3), 127-131.
5. Rustamjonovna, N. S. (2024). O ‘SMIRLARDA DEVIATSIYA KO ‘RINISHLARI VA VUJUDGA KELTIRUVCHI OMILLARI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(1), 171-175.
6. Rustamjonovna, N. S. (2024). THE PROBLEM OF AGE AND GENDER DIFFERENTIATION OF DEVIANT MORALITY. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, *2*(22), 222-224.
7. Rustamovna, N. S. (2024). O ‘SPIRINLIK YOSHIDA EMPATIYANING NAMOYON BO ‘LISHI VA UNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOG*, *7*(5), 89-96.
8. Narziyeva, S. (2024). O ‘SPIRINLIK YOSHIDA EMPATIYANING NAMOYON BO ‘LISHI VA UNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOG*, *7*(4), 320-327.
9. Toymurodov, A. (2023, December). MODERN INTERPRETATION OF PSYCHODIAGNOSTICS AND PSYCHOCORRECTION OF EXTREME SITUATIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 5, pp. 71-79).
10. Toymurodov, A. (2023). BASICS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICES TO MILITARY PERSONNEL. Академические исследования в современной науке, 2(24), 148-152.
11. Shuhratovich, T. A. (2025). PSIXOLOGIK TESTLAR TURLARI VA ULARNI QANDAY QO'LLASH. Modern digital technologies in education: problems and prospects, 2(1), 8-15.
12. Abdurahmon, T. (2025). BOLALAR PSIXOLOGIYASINI O ‘RGANISH ULARNING RIVOJLANISH JARAYONLARI. Modern digital technologies in education: problems and prospects, 2(1), 16-21.
13. Abdurahmon, T. (2025). STRESSNI EKSPERIMENTAL TAHLIL QILISH. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, *2*(1), 51-56.
14. Abdurahmon, T. (2025). XOTIRA VA ESLAB QOLISH JARAYONLARINI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, *2*(1), 57-62.
15. Abdurahmon, T. (2025). PSIXOLOGIYADA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINI EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISH. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, *2*(1), 1-7.
16. Abdurahmon, T. (2025). PSIXOLOGIYADA NEYROEKSPERIMENTLARNING AHAMIYATI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, *2*(1), 14-20.
17. Abdurahmon, T. (2025). KOGNITIV PSIXOLOGIYA INSONNING ONG JARAYONLARI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, *2*(1), 8-13.
18. Akbarovna, I. S., & Lola, I. (2025). IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYATDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G’OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR*, *7*(75), 201-204.

19. Икромова, С. А., & Джумаева, Ф. Б. (2025). ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СТРУКТУРА В УЗБЕКИСТАНЕ И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(2), 256-262.
20. Ikromova, S. A. (2025). ART TERAPIYANING RUHIY KASALLIKLARNI DAVOLASHDAGI O 'RNI VA SAMARADORLIGI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(2), 154-157.